




Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti
TARIX FAKULTETI



TARIX JAM'IYAT

JOURNAL
2023



No 5



HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

**2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o‘qitish metodikasi**

Bosh muharrir: **Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.**

Bosh muharrir **Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.**
o‘rinbosari:

Mas’ul kotib: **Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

Dizayner va sahifalovchi:

Axmurodov D.Q

TARIX DARSLARINI SAMARLI O'QITISH ZARURIYATI

Tilovboyev Muhammad

JDPU tarix fani o'qituvchisi

Umarova Dinora

JDPU tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Tarix fani ta'limning barcha bosqichlarida o'z o'rniiga ega bo'lgan mustaqil ijtimoiy fan sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga egahisoblanadi. Ushbu maqolada milliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil etish orqali tarixiyta'limni qanday qilib yanada samarali tashkil qilish mumkinligini muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: samarali o'qitish, tarixni o'qitish, tarixni samarali o'qitish, metod.

Аннотация: История как самостоятельная общественная наука, имеющая свое место на всех ступенях образования, имеет важное значение в воспитании зрелого поколения. В данной статье рассматривается, как более эффективно организовать историческое образование, анализируя отечественную и зарубежную литературу.

Ключевые слова: эффективное обучение, преподавание истории, эффективное преподавание истории, метод.

Abstract: History, as an independent social science that has its place in all stages of education, is important in raising a mature generation. This article discusses how to organize historical education more effectively by analyzing national and foreign literature.

Key words: effective teaching, history teaching, effective history teaching, method.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini xolisona o'rganish, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish ustuvor vazifaga aylandi. O'zbekxalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o'zlik va ma'naviy yuksalish asosi bo'lgan tarix fani ham o'ziga xos rivojlandi. O'zbekiston tarixini xolisona yoritishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida aytilganidek, "... jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz".¹

¹ Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatinibirgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – B.27.

Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan tarix fani so'ngi yillarda ilk bor o'zining qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishgakirishdi. "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yuqotish va qurbanlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi". Tarixiy voqeа, hodisalarни o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik, haqqoniylik,adolatli yondashuv muhim hisoblanadi.

Tarix fanini samarali tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin "samarali ta'lim" tushunchasini mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil etgan holda o'rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Samarali o'qitish - bu o'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali talabalarda mustaqil o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayoni hisoblanadi .

Shuningdek, samarali o'qitish bu o'z o'lchovlari bilan baholanishi kerak bo'lgan keng tushunchadir. Shuning uchun samarali o'qitish, ta'lim sifatini oshirish uchun tashkil etilgan turli xil murakkab jarayonlar majmuasi hisoblanadi.²

Samarali o'qitishning ikkita asosiy xususiyati mavjud. Bular:

- Talabalarni turli xil faktlar, ko'nikmalar, qadriyatlar va tushunchalarni o'rganishlarini osonlashtirish;
- Sinfda yagona kursni emas, balki turli xil o'qitish strategiyalari, usullar va texnologiyalarni yakka yoki kombinatsiyalangan holda ishlatish qobiliyatini o'qituvchilarda shakllantirish;

Yana bir qarashga ko'ra, samarali ta'limni talabalarning muvaffaqiyat darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy o'qituvchilik malakasi sifatida tavsiflash mumkin.Bu fikrlar qurshovida aytish mumkinki, samarali ta'lim beruvchi o'qituvchi o'z kasbi va sohasini bilgan va sevgan, bilimli, g'ayratli, fidoyi, tartibli va kirishuvchan, tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga sohib, adolatli va shu bilan birga talabalarga bilimni targ'ib qilaoluvchi va ularning tinchligi va kelajagiga qiziqadigan shaxs sifatida belgilanadi.

"Ta'lim" keng ma'noda oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon, tor ma'noda esa, ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiyquyi tuzilmalaridan biridir.

² Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. ISJ Theoretical & AppliedScience, 1(81), 250-257.

"Sifat" esa falsafiy termin sifatida ob'ekt yoki predmetning barcha muhim xususiyatlari yig'indisidir. "Ta'lism" va "sifat" tushunchalarining mohiyatini uyg'unlashtiradigan bo'lsak, ta'lism sifati, bu uning xususiyatlari yaxlitligi, ta'lism oluvchi o'qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat jarayondir.

Samarali tarix o'qitish o'quvchilarga tayyor tarixiy xulosa qilingan ma'lumotlar bilan birga manba va dalilarni taqdim etishni talab etadi. O'quvchi ma'lum tarixiy manbalarni (xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin) tahlil etgan holda tarixiy bilim va tasavvur hosil qilishi pedagogik nuqtai nazarda g'oyat samaralidir. Zotan, tarix darslarida ta'lism oluvchining xotirasini rag'batlantiruvchi usullardan ko'ra, uning mustaqil fikrlashini ta'minlaydigan usullardan foydalanish foydali hisoblanadi.

Tarix o'qituvchisining o'ziga xos vazifasi tarixiy tushunchalarni o'rgatish bilan birga uni keljakga yetkzishni ta'minlashdir. Tarixni o'qitish samaradorligini ta'minlash uchun, tarix o'qituvchisidan ma'lum bilim darajasi va ba'zi o'qituvchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi, tarixiy voqealarni, faktlarni, odamlarni, jarayonlarni va o'ziga xoslikni tushunish va tushuntirish uchun transformatsiya, sharhlash, baholash, tahlil va sintez qobiliyatları va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Dars jarayonida tarixiy materiallar va manbalardan (tarixiy hujjatlar, tarixiy ashyolar, rasmlar, xaritalar) foydalanish juda muhim va foydalidir. Bundan tashqari, tarix darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shibgina qolmay, ularning tarixiy tafakkur va o'rganish darajalarini oshiradi.

Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rinn tutadi:

1. Tarixni o'rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunda tarix metodikasi bo'yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o'rganish orqali ulardan foydalanish.

2. Tarixni o'rganish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyanı amalga tadbiq etish.

3. O'rta va o'rta maxsus ta'lism, professional ta'lism, oliy ta'lism uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiyaiga tayanish.

4. Tarix fanining dolzarb muammolarni o'rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta'lism va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish.

5. Tarix fanini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni o‘tkazish va fanning dolzARB muammolarini o‘rganish jarayonida erishilgan yutuqlarni monitoringini olib borish va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – B.27.
2. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. In Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127).
3. E. Perrot, Effective Teaching. New York: Longman. (2012); B. Laar, R. Blatchford,D.Winkley,G. Badman, R. Howards, Effective Teaching. Oxford: National Primary Center. – P.108.
4. A. Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 2009. –P.401.
5. R. Dunne, E.C. Wragg, a. g. e. s. 54 C. Kyriacou, a. g. e. s.45 ;. Laar, R. Blatchford, D.Winkley, G. Badman, R. Howards, - S. 14.
6. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. ISJ Theoretical & AppliedScience, 1(81), 250-257.